Abduraximova Noila Abduxalil qizi
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail:nellynelly9160@gmail.com
Tel: (90) 006 79 45

HIS-TUYG'U KATEGORIYASI TILSHUNOSLIKNINNG O'RGANISH OB'YEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada his-tuyg'u kategoriyasini tilshunoslikning ob'yekti sifatida o'rganilgan. Bunda nafaqat ko'zga ko'ringan xorij tilshunoslari balki mahalliy tilshunoslar fikrlarini ham muhokamaga tortilgan. Emotsiologiya yo'nalishini paydo bo'lish va rivojlanish tarixi haqida ham fikrlar yuritilgan. Emotsiologlarning zamonaviy tadqiqot mavzulari markazida bo'lgan asosiy muammolari tizimi ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: his-tuyg'u, emotsiologiya, emotivlik, lingvokulturologiya.

КАТЕГОРИЯ ЭМОЦИИ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотоция: В данной статье категория эмоции исследуется как объект языкознания, обсуждаются мнения не только видных зарубежных лингвистов, но и отечественных лингвистов. Также есть размышления об истории возникновения и развития области эмотиологии. В статье отражена система основных проблем эмоциологов, находящихся в центре современной исследовательской тематики.

Ключевые слова: эмоция, эмоциология, эмоциональность, лингвокультурология.

THE CATEGORY OF EMOTION AS AN OBJECT OF STUDY OF LINGUISTICS

Abstract: In this article, the category of emotion is studied as an object of linguistics, the opinions of not only prominent foreign linguists, but also uzbek linguists are discussed. There are also reflections on the history of the emergence and development of the field of emotiology. The article reflects the system of the main problems of emotsiologists, which are at the center of modern research topics.

Key words: emotion, emociology, emotionality, linguoculturology.

Kirish. Ilk marotaba 1987 yilda Berlinda bo‘lib o‘tgan IV Xalqaro tilshunoslar kongressining plenar majlisida Chex tilshunosi, Praga lingvistik maktabining vakili F. Danesh tilning emotsional jihati haqidagi ma’ruzasini taqdim etdi, unda kognitsiya va hissiyot o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlik haqida ishonchli gapirib o’tdi va tilning aynan shu tomonini o'rganish ulkan lingvistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib ham berdi. Konferensiya qarori bilan “Til va hissiyotlar” muammosi zamonaviy tilshunoslik fanining eng ustuvor beshligi qatoriga kiritildi. Bu fakt ko'plab mahalliy va chet el tilshunoslarini lingvistik ifoda va hissiyotlarning aloqasini o'rganishga e'tibor qaratishga undadi. Xozirgi kunda his-tuyg'ular tilshunosligi (emotsiologiya) ning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida gapirishga imkon beradigan ko’plab maqolalar va monografiyalar paydo bo’lmoqda va turli tillardagi materiallar bo'yicha yuzlab dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida 1991 yilda Dyusseldorfdagi Anglistentagda taqdim etilgan 35 ta ma'ruzadan 18 tasi hissiyotlar tili, hissiy leksika va sintaksis, tinish belgilari va metafora, shuningdek, hissiyotlarning og'zaki va og'zaki bo'lmagan namoyon bo'lishining madaniyatlararo o'ziga xosligining ko'plab muammolariga bag'ishlanganini ko’rsak bo’ladi.

- **Mavzuga oid agabiyotlar tahlili.** 80-yillarning boshidan chet el tilshunosligida A.Vejbitskaya, V.Volek [Volek, 1987], J.Eytchinson [Filimonova, 2001] va boshqalar tilning emotsional tomoniga katta e’tibor qaratishgan. Fanning turli sohalari olimlari, jumladan, tilshunoslik olimlarining his-tuyg’ularga qiziqishi ortishi natijasida 1985 yilda Garvard universitetida hissiyotlarni o‘rganish xalqaro markazi tashkil etilgan. Bu markazda ko'plab maxsus his-tuyg’uni ifodalovchi so’zlar lug'atlari, shu jumladan vulgar so'zlar lug’atlari nashr etilgan; umumiy tushuntirish lug'atlari esa invektivlarni (so’kishni ifoda etuvchi so’zlari), jumladan, Yevropada shakklangan va qo’llanilayotgan, biroq o’zbek mentalitetida qo’llanilishi qat’iyan man etilgan so’zlarni ham o’z ichiga olgan.

V.Edmonson turli til madaniyatlarida his-tuyg‘ularni ifodalashning etnik me’yorlari haqida gapirar ekan, ularni qanday ifodalash emas, balki bu vositaga ruxsat berilgan shart-

sharoitlar bilan bog‘liqligini haqli ravishda qayd etadi [Edmondson, 1992:64]. Shunday qilib, his-tuyg'ularning diskursivligi muammosi birinchi marta ko'tariladi.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Olimlar his-tuyg'ularning kamida ikkita semiotik tizimi mavjudligini anglay boshladilar - Body language and Verbal language, ular doim beqaror munosabatda bo'ladi. Umuman olganda, birlamchi semiotik tizim ikkinchi darajali (og'zaki) tizimdan ishonchliligi, tezligi, to'g'ridan-to'g'riligi, samimiylik darajasi va aloqada his-tuyg'ularni ifodalash sifati, shuningdek, ularning qabul qiluvchi tomonidan dekodlash adekvatliligi bo'yicha ustun ekanligi allaqachon aniqlangan.

- **Tahlil va natijalar.** Inson hayotining ko'p qirralarini oddiygina so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: haqiqatdan ham til borliqqa nisbatan ojizdir. Har bir so’zlovchi tinglovchiga biror axborotni yetkazishda muayyan muammoga duch kelishi mumkin. Bu o’rinda so’zlovchi suhbatdoshga yangikini ifoda etishda so’z yoki jumlani yetkazishda uning muqobillari tilga kelmasligi mumkin. Shu o’rinda so’zlovchi turli his-tuyg’uni ifoda etuvchi harakatlardan foydalanadi. Bu esa tilshunoslikda homo sapiens ya’ni inson aql idroki deb yuritiladi. Til va his-tuyg'ularning yaqinlik darajasi har doim ham biz o`ylaganimizdek yaqin emas. His-tuyg'ular hech qachon farqlangan sof shaklda namoyon bo'lmaydi va shuning uchun ularning og'zaki identifikatsiyasi doimo sub'ektivdir [Diller, 1992: 26-27].

Bundan tashqari, bir xil his tuyg'u turli xil ko’plab lingvist olimlar tomonidan bir necha omillar ta’sirida turlicha talqin etiladi, shu jumladan , masalan, muloqot fonida nolisoniy omillar ta’sirida ham talqin etiladi.

A. Xellerning fikriga ko‘ra, his-tuyg‘ular hamisha kognitiv va vaziyatga bog‘liq bo‘ladi [Heller, 1992: 182], binobarin, ularni ifodalashning til vositalarini tanlash ham diskursiv hususiyatga egadir.

- **Xulosa va takliflar.** Barcha tillarda his-tuyg'uni ifodalovchi leksemalarda baholash belgisi turiga ko'ra dixotomiya mavjud chunki barcha tilshunoslar tomonidan bunday semantik universallikni qayd etiladi. Agar mezon sifatida baholash belgisi turini olib, emotsionallikka hos leksemalarni taqqoslasak, barcha tillarda quyidagi manzara namoyon bo'ladi: turli tillarning lug'atlarida ijobiylarga qaraganda salbiy baholovchi semantikaga ega

emotsiyalar ko'proq, ammo ular ikkinchisiga qaraganda ancha kam ishlatiladi. Bu turli xalqlar va madaniyatlarning hissiy tizimlari o'xshash degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, chunki. ularning leksikasida ustun bo'lgan salbiylik, foydalanishdagi pozitivlik va sintagmatik birikmadan past bo'lib, bu insoniyatning ijobiylikka bo'lgan psixologik istagi bilan izohlanadi. Lingvomadaniyatshunoslik uchun yana bir o'xshash jihat shundaki, ijobiy his-tuyg'ular barcha xalqlar tomonidan har doim o'ziga xos, aniq va xilma-xil bo'lgan salbiy his-tuyg'ularga qaraganda bir xil va tarqoqroq ifodalanadi [Noth, 1992: 83].

Kognitologiya bilimlarning tuzilishi, uning shakllanishi, moddiylashtirilishi va tarjimasi haqidagi fan sifatida emotsiologiya bilan chambarchas bog'liq - his-tuyg'ularni og'zakilashtirish, ifodalash va muloqot qilish fani deb ta’riflanadi. Bu barcha bilish (fikrlash) jarayonlarining hissiyotlar bilan bog'liqligi bilan izohlanadi Tilshunos olim Danesh "... bilish hissiyotlarni keltirib chiqaradi, chunki u hissiydir va his-tuyg'ular bilishga ta'sir qiladi, chunki ular kognitiv jarayonlarning barcha darajalariga aralashadi" deb fikr yuritadi [Danes, 1987: 280].

Emotsiologiya (his-tuyg'ular tilshunosligi) hissiyotlar haqidagi kognitologiya fani ma'lumotlaridan foydalanadi va hissiyotlarning o'ziga xos lingvistik kontseptini ishlab chiqishga harakat qiladi.

His-tuyg'ular tilshunosligi bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlarning keng ro'yxatini o'rganish emotsiologlarning zamonaviy tadqiqot mavzulari markazida bo'lgan asosiy muammolarning quyidagi ro'yxatini aniqladi:

• emotsional belgilar tipologiyasi;

• olamning lisoniy manzarasi tushunchasini shakllantirishga aqliy uslub turining ta'siri, olamning lisoniy manzarasini emotsional tushunchasi;

• his-tuyg'ular muloqoti;

• dunyoning turli tillaridagi his-tuyg'ular leksikalarining o'zaro bog'liqligi;

• his-tuyg'ularni ifodalashning milliy-madaniy o'ziga xosligi;

• tilning emotivlik mezonlari va uning belgilari;

• ikki semiotik tizim sifatida his-tuyg'ular tilshunosligi va paralingvistikaning o'zaro bog'liqligi;

• hissiyotlar emansipatsiyasining til jarayonlariga ta'siri;

• matnning emotsional/emotiv ranglanishi/modalligi;

• tilning emotsional semantik maydoni;

• emotivlik leksikografiyasi;

• o'zining va boshqalarning lahzalik va o'tmish/kelajak (oldindan ko'rish) his-tuyg'ularini tasvirlash va ifodalash pragmatikasi;

• ularning og'zaki ko’rinishida his-tuyg'ularni yashirish, taqlid qilish, simulyatsiya qilish.

Emotsiologiyaga hos ma'lumotlarni qo'llashda lingvokulturologiya muhim ahamiyat kasb etadi. Unda hissiyotlarning universalligi, ularning ajralmas tabiati va turli tillar vositasida homo sentiens ya’ni inson aql idroki sub'ektiv sohasini ifodalashning milliy-madaniy xususiyatlariga doir qoidalardan foydalanadi.

Tabiiyki, emotsiyaga doir nazariyalar hali to’la o’z yechimini topmagan. Bu esa uzoq vaqtdan buyon tilshunoslikda emotsiologiya va kognitiv tilshunoslik fanlarining o’zaro munosabatlari masalasida munozara va bahslarga sababchi bo’lgan mavzulardan biridir.

Til birliklarining emotsional komponentlarini o‘rganish so‘zning emotsional semantikasini o‘rganishdan boshlangan. Buning sababi shundaki, so'z ongimizdagi tilning butun maydonini ifodalovchi asosiy va ayni paytda semantik nuqtai nazardan eng harakatchan birlikdir. 70-80-yillar tilshunosligida yaratilgan ilmiy maqolalar his-tuyg'u nomlari bilan ifoda etilgan bo’lsada, hissiy vositalarga tegishli bo’lmagan, chunki tilda go'yoki uning ma'nosini ochib beradigan ikkinchi darajali belgilar tizimi mavjud bo’lmagan, ammo keyinchalik tilning boshqa hususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Tuyg'u nomlari, emotsional holatlarni tavsiflovchi va ifodalovchi leksika bilan bir qatorda leksik emotsional vositalar tizimini tashkil qiladi, shuning uchun emotsionallik tushunchasi emotiv leksikani ham, his-tuyg'ular leksikasini ham o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, tilning ikkilamchi semiotik tizimi sifatida konnotatsiya mavjudligi ham tan olingan. Shu munosabat bilan ba’zi tilshunos olimlar hissiyot atamalarini

konnotativ-assotsiativ-emotiv deb belgilaydilar. A.Vejbitskaya nemis, rus, polyak va ingliz tillarida g'azab, achinish va boshqa his-tuyg'ularning nominatsiyasini tahlil qiladi [Wierzbicka, Bessemers, 2009].

Emotivlik tushunchasini talqin qilishda dunyo olimlarini qarashlari turlicha. Ko‘pchilik chet el tilshunoslari tildagi his-tuyg‘ularning ifodalanishini tahlil qilar ekan, birinchi navbatda his-tuyg‘ularni nomlaydigan so‘z turkumlari yoki alohida leksemalarni o‘rganishga e’tibor qaratsalar, mahalliy tadqiqotchilar hissiyot tushunchasini baholash bilan bog‘lashni afzal ko‘radilar va ko'pincha hissiylik leksikasini his-tuyg'ularni ifodalovchi va tavsiflovchi so'zlar bilan cheklaydi.

Bizning fikrimizcha, emotsional holat va hissiy munosabat tilda turli vositalar orqali ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita nominatsiya (fear, love, anger), ham bilvosita ifodalash (undalma, invektiv leksika va h.k.) va tasvirlash (pouzalar, nutq va ovozning xususiyatlari , ko’z qarashi, harakat va boshqalar) bilan ifodalanishi mumkin. Agar biz hissiyotni sub'ektning hissiy holatini ifodalovchi vaziyat tushunchasidan kelib chiqadigan bo'lsak, unda turli xil aloqa sharoitlarida va so’zlovchining niyatlariga qarab hissiy holat va munosabatni ifodalashning turli xil vositalari mavjudligini tan olishimiz kerak.

Shunday qilib, his-tuyg'ularni bildiruvchi leksika, ko'rinishidan, to'g'ri emotsional lug'at va emotsional bo'lmagan leksika o'rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi, chunki u butunlay neytraldan ko'ra ko'proq hissiydir.

Tilda so’zlovchining hissiy kompetentsiyasining mezoni uning hissiy jihatdan to'g'ri matnlarni (o'qitish amaliyotida va tabiiy aloqada) yaratish qobiliyatiga egaligini namoyon etadi; uning hissiy yetukligi mezoni, shubhasiz, boshqa shaxs nutqining hissiy dominantlarini boshqa kontseptual sohalar va boshqa madaniyatlarning aksi sifatida yetarli darajada idrok etish qobiliyati sifatida xizmat ko’rsatishi mumkin.

Turli madaniy va hissiy tushunchalarning ma'nolarini aniqlash bo'yicha olib borilgan ishlarning natijasi kommunikantlarning og'zaki xatti-harakatlari xususiyatlarini tushuntirish tamoyili sifatida hissiy deyksis tushunchasini asoslash va qo’llashni talab etadi.

Shunday qilib, his-tuyg'ular tili (hissiy til) haqida olingan bilim hissiyotlarning to'g'ri lingvistik nazariyasini rivojlantirish uchun muhim asos hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Филимонова О.Е. Язык и эмоции в английском тексте. Когнитивный и коммуникативный аспекты: Монография. – СПб.: Издательство РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. – 259 с

2. Danes F. Cognition and emotions in Discourse Interaction: A Preliminary Survey of the Field // preprints of the Plenary Session papers – XIVth International Congress of Linguistics. Berlin. 10-15 August 1987. Berlin, 1987. – P. 272-291

3. Diller H. J. Emotions and the Linguistics of English // Anglistentags “1991, Dusseldorf”: Proceedings / edit. by Wilhelm G. Busse, Max Niemeyer Verlag. – Tubungen, 1992. – P. 25-29.

4. Edmondson W. Affect and Language Development // Proceed-tags… Tubungen: Niemeier, 1992.

5. Heller A.A. Theory of Emotions. Assen, 1979. Цит. по.: Bonheim H. Emotions in Literature // Proceed-tags… Tubungen: Niemeier, 1992. – P. 179-189.

6. Noth W. Symmetries and Asymmetries between Positive and Negative Emotion Words // Anglistentags “1991, Dusseldorf”: Proceedings / edit. by Wilhelm G. Busse, Max Niemeyer Verlag. – Tubungen, 1992. – P. 72-89.

7. Volek B. Emotive Signs in Language and Semantic Functioning of Derived Nouns in Russian. Amsterdam / Philadelphia, 1987. – 279 p.

8. Wierbicka A., Besemeres M. Emotion terms as a window on culture, social psychology and subjective experience // Язык и эмоции: наминативные и коммуникативные аспекты. Волгоград, 2009